

KICHIK MAKTAB O'QUVCHILARIDA TA'LIMNI O'ZLASHTIRAOOLMASLIK MUAMMOSINING AYRIM SABABLARI

¹Majidov Jasur Baxtiyarovich, JDPU Umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

²Norboyeva Diyora, Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshida ta'limdi o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarning ayrim omillari hususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limdi o'zlashtiraolmaslik, kichik maktab, irsiy, biologik, ijtimoiy, ta'lim, integratsiya.

Katta hayot yo'lida eng muhim masala- maktab masalasidir.

A.Fitrat

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohatlari eng avvalo har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Bunday vazifani amalga oshirishda mактабning o'rni beqiyosdir. Bola mana shu mактабда shaxs bo'lib shakillanish jarayonining eng muhim bosqichini bosib o'tadi. Shu bilan birga bolaning bilim va ko'nikmalari, hayot haqidagi tasavvurlari ayni shu jarayonda rivojlanib, tarkib topib boradi. Lekin mактабга bir vaqtida qabul qilingan har bir o'quvchi ham barcha o'quv fanlarini birdek o'zlashtira olmaydi.

Xalqimizda besh qo'l barobar emas, degan naql bor. Hayotda har bir insonning o'z iqtidori, dunyoqarashi, qiziqishi mavjud. Har bir sinfda siz xohlaysizmi yo'qmi, o'quvchilar bir xil emas. Birovining zehni o'tkir, boshqasiniki sustroq, kimdir ona tili va adabiyotga qiziqsqa, kimdir matematika, kimyo, yoki bo'lmasa xorijiy tillarga qiziqadi. Shuningdek, ularning o'zlashtirishi ham har xil bo'ladi. Birovi yaxshi, birovi o'rtta, yana boshqasi esa sekin o'zlashtiradi.

Bunday bo'lishining sabablarini ko'plab olimlarimiz, o'qituvchi pedagoglarimiz o'rganib kelishmoqda. Ko'pchilik olimlar tomonidan irsiy omillar mana shu jarayonda muhim o'rinn tutishini ta'kidlashadi.

Ayrim pedagog olimlar va psixologlar fikricha, insonning kamolati ikki omilga, irsiyatga va ijtimoiy muhitga bog'liq, deb hisoblaydilar. Irsiy omillar har qanday insonning jismoniy va ruhiy hususiyatlarini belgilab berishini nazarda tutib, bolaning psixologik va biologik jihatdan normal rivojlanishiga to'siq bo'livchi omillar sifatida quyidagilarni aytib o'tishimiz mumkin:

1. Irsiy kasalliklar natijasi (irsiy xarakterga ega bo'lsa);
2. Homila (zarodish) rivojlanish davrida shifokorlarning maslahatisiz har xil dori vositalarini iste'mol qilish;

3. Homiladorlik davrida har xil virusli infeksiya kasalliklarini boshdan kechirish va ularning asoratlari;

4. Homilador ayolning nooqilona ovqatlanishi, organizm istagan paytda, istagan ovqatlik mahsulotlarini iste'mol qilmaslik;

5. Homilador ayolning spirtli ichimliklarni ichishi, chekish va har xil giyohvand moddalarni iste'mol qilishi;

6. Erta yoshda va kech turmushga chiqib homilador bo'lish;

7. Nikohdagilarning qon guruhlari va rezus omillari;

8. Homilador ayolda mavjud har xil ekstragenital kasalliklar va ularning asoratlari;

9. Oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy psixologik omillar va boshqalar.

Maktab ta'limida o'zlashtira olmaslik sabablari sifatida genetik omillardan tashqari yana quyidagi ijtimoiy omillarni ham e'tirof etish lozim bo'ladi.

Bular quyidagilar:

- Oilaning -ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli,oila byudjeti;

- Ota-onaning bilim saviyasi;

- Ota-onaning qiziqish va mayllari;

- Ota- onaning yoshi;

- O'quvchining nechanchi farzandligi;

- Yashash sharoiti;

- Er va xotin munosabatlari (oilaviy nizolar, mojarolar) va boshqa omillar.

Kuzatishlar shu narsaga aniqlik kiritdiki, sinfdagi past o'zlashtiruvchi o'quvchining ham biror bir fanga, yoki biror-bir sohaga qobiliyati bor. Faqat ko'pchilik o'quvchilar tomonidan bajarilayotgan ishlarning, bola tomonidan bajarishga uquvsizligi yoki o'zlashtirish qiyinchiliklari o'quvchini tengdoshlaridan ajratib qo'yadi.

Oiladagi nosog'lom ijtimoiy muhit bolaning kayfiyatiga kuchli tasir ko'rsatib, o'qish faoliyatiga nisbatan qiziqish va intilishni so'ndiradi, tengdoshlaridan o'zini doimo chetda tutishiga sabab bo'ladi. Bu haqda Fransuz psixologi E.Dyurkgeym, ulg'ayish - kishilarning his-tuygularni o'zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an'ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallahini, biologiyada irlisyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi. Bundan ko'rinish turibdiki, bolani o'rab turgan ijtimoiy muhit, eng avvalo oila muhiti bola taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida past o'zlashtiruvchi o'quvchilar tarkibini aniqlab, o'quvchidagi o'zlashtira olmaslik sabablarini bartaraf etishda o'qituvchi, psixolog, defektologlarning o'rni beqiyosdir.

Maktab psixologi past o'zlashtiruvchi o'quvchi shaxsi xaritasini tuzib, u haqidagi barcha ma'lumotlar, o'zlashtira olmaslikka sabab bo'luvchi omillarni birma-bir o'rganib chiqishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundan so'ng bu o'quvchiga qanday yondashish kerakligi oydinlashadi.

Mazkur muammoga yondashishda Toshkent shahar Olmazor tumani XTBning Davlat ta’lim standartlari monitoringi bo‘limi (boshlig‘i N.Mavlyanova) o‘qituvchilarga past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishslash bo‘yicha metodik qo‘llanmasini tavsiya etgan. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishamiz:

- past o‘zlashtiruvchi o‘quvchining qobiliyati, xarakteri, qiziqishlari, psixologiyasi va yashash sharoitini o‘rganish;
- o‘zlashtira olmayotganlik sababini (aqliy qobiliyati, mehnatga layoqati, salomatligi, ota-onalar nazorati singari) aniqlash;
- o‘quvchiga to‘g‘ri ta’sir qilish uslubini ishlab chiqib, darsdan tashqari mashg‘ulotlar tashkil qilish;
- oddiydan murakkabga o‘sib boruvchi materiallar berib, dars davomida diqqat markazida ushlab turish;
- a’lochilarni past o‘zlashtirayotgan tengdoshlari bilan ishslashga jalb etish va boshqalar.

O‘qituvchi o‘quvchidan savol so‘rash vaqtida (yaxshi munosabat, javob berishda shoshirmaslik, baho bilan rag‘batlantirish), yangi mavzuni tushuntirishda (mohiyatni ochib beradigan ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, umumlashtirish va xulosa chiqarishda ularni jalb qilish), mustaqil ish tashkil qilayotganida (qiyin masalalarni bosqichlarga bo‘lish, topshiriqni bajarishga yordam beradigan qoida va formulalarni yodga tushirish), uyga vazifa bergenida (samaraliroq mashqlar tizimini tanlash, bajarish tartibini batafsilroq tushuntirish) o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirib borishni nazardan chetda qoldirmasligi shart. Chorak davomida qaysi mavzularni o‘zlashtirish qiyin kechayotganligi, o‘zlashtirishda qaysi o‘quvchilar qiynalayotganligini aniqlab, zaruriy chora-tadbirlarni o‘z vaqtida ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida past o‘zlashtiruvchi o‘quvchining risolagidek o‘quvchi bo‘lib shakllanib borishida muhim o‘rin tutadi.

Dunyo ta’lim amaliyotida integratsion ta’lim uslubidan foydalanish ko‘p jihatdan o‘quvchilarning ayrim fanlarni o‘zlashtirishga to‘siqlarni bartaraf etib bola imkoniyatlarini oshirishi isbotlangan. Bu eng avvoli o‘qituvchilardan katta mahorat va ziyraklikni talab etadi. Bunda o‘qituvchi bola qiziqishini to‘g‘ri anglagan holda qiziqqan faniga o‘zining (boshqa) fanini mantiqiy bo‘g‘lanish asosida tushuntirishga harakat qilsa, bola shaxsining rivojlanish qonuniyatlarini to‘laroq bilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” Tosh2008 yil.
2. Marifat gazetasi 2008 yil 27 –aprel soni.
3. B.M. Umarov Psixologiya “Voris nashriyot” Tosh... 2012 yil
4. David G. Myers “Psychology ninth edition in modules”. NY-2010.4-5pages.
5. Mamedov K.K. G’. Shoumarov. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. Toshkent.1993 yil.
6. Majidov, J. (2021). СПОРТДАГИ МУЛОҚОТ ИЖТИМОЙЙ ПСИХОЛОГИК ХОДИСА СИФАТИДА. Журнал Педагогики и психологии в

- современном образовании, 1(1). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>
- 7.Majidov, J. (2021). ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА ЎЗАРО МУНОСАБАТЛАР КЕЧИШИНИНГ АЙРИМ ҲУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/724>
- 8.Majidov, J. (2021). ВОПРОСЫ ГАРМОНИИ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ И УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНЮ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1369>
- 9.Majidov, J. (2021). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1375>
- 10.Majidov, J. B. (2020). Some characteristics of relationships in football teams. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1981–1988. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2020.01488.3>
- 11.Majidov, J. (2021). KEKSALIK DAVRINING BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3074>
- 12.Jasur Majidov, СВОЕОБРАЗНОСТИ ВЗАИМООТНОЩЕНИЙ В СИСТЕМЕ “ТРЕНЕР-СПОРТСМЕН” В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ФУТБОЛЬНЫХ КЛУБАХ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education
- 13.Majidov, J. (2021). ШАХСГА ТИЗИМЛИ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (3). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4325>
- 14.Ж.Мажидов.ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР – СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ <https://scienceweb.uz/publication/865>
- 15.Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 608-613.
- 16.Эшонкулова, X. (2022). ИҚТИДОРЛИЛИК МУАММОСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(7). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5762>
- 17.Majidov, J. (2022). ЎСМИРЛИК ДАВРИГА ХОС СУИЦИДАЛ ХУЛҚНИНГ АЙРИМ САБАБЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в

- 18.Majidov, J. (2021). ЁШЛАРНИНГ ОИЛАВИЙ ҲАЁТ ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИ ВА ОИЛАВИЙ ҲАЁТДАН ҚОНИҚИШ УЙҒУНЛИГИ МАСАЛАЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1).
- 19.Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ УСТАНОВКАЛАРИ ВА ЎЗИГА ХОСЛИГИ. Involta Scientific Journal, 1(6), 69-77.
- 20.Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ УСТАНОВКАЛАРИ ВА ЎЗИГА ХОСЛИГИ. Involta Scientific Journal, 1(6), 69-77.
- 21.Мажидов Жасур, & Ҳамдамов Ҳайдарбек. (2022). ШАХСГА СТРУКТУРАВИЙ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Involta Scientific Journal, 1(7), 138–148. Retrieved from <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/255>
- 22.Ziyadullayeva, M., & Majidov, J. (2022). KEKSALIK DAVRINING BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 32-35.
- 23.Majidov, J. (2022, March). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIMI O'ZLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK SABABLARI. In International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding (Vol. 1, No. 1).
- 24.Majidov, J. B., Sobirov, A. B., Karshiboeva, D. B., & Mamarayimova, R. U. (2022). Factors Of Formation Of The Scientific Worldview Of The Person And Their Interrelation. PORTA LINGUARUM, 37, 65-70.
- 25.Majidov, J., & Jo'rabek, A. (2022). MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARI IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).
- 26.Мажидов, Ж. Б. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ШАХСНИ ЎЗИНИ-ЎЗИ ИДРОК ЕТИШИ ЎРТАСИДАГИ БОГЛИҚЛИК МУАММОЛАРИ. Ученый XXI века, (5-2 (86)), 19-24.
- 27.Ж.Мажидов-. (2023). ЛИДЕРЛИК СИФАТЛАРИНИНГ ГЕНДЕР ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Involta Scientific Journal, 2(4), 293–298. Retrieved from <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/540>
- 28.Jo'rayev, O. (2023). TALABALARDA IRODAVIY FAOLLIKNI NAMOYON BO'LISHINING GENDER TAFOVUTLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 116-119. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8727>

- 29.Jo‘rayev O‘.T. Xorij psixologiyasida iroda muammosining tadqiqi. O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari ilmiy jurnali 75-77 betlar. 2021. [1/6] ISSN 2181-7324
- 30.Jo‘rayev O‘.T. Irodaviy faollilikning shaxslilik va gender tafovutlari. O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari ilmiy jurnali. 2023 aprel [1/3]ISSN 2181-7324
- 31.Жураев, У. Т. (2020). Практический анализ функционирования ситуационных и личностных детерминант волевой деятельности. *Проблемы современной науки и образования*, (1 (146)), 108-110.
- 32.Жураев, У. Т. (2020). Психологические детерминанты формирования навыка личности. *Вестник науки и образования*, (7-2 (85)), 98-100.
- 33.Жураев, У. Т. (2018). Modern psychological character of terrorism. *Научные горизонты*, (3), 31-35.